

MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONSDEVIANT XULQLI MIJOZLAR BILAN IJTIMOIY ISH OLIB
BORISH USULLARI.**Hilola Abdullayeva***Urganch Davlat Universiteti Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar fakulteti
Ijtimoiy ish Oila va bolalar bilan ishlash yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

Annototsiya: Bu maqolada asosan deviantlik tushunchasi,yosh avlod o'rtasida deviant hulq atvor rivojlanishi jamiyatdagi jinoyatlarning bosh omillari,deviant hulqli shaxslarni reabilitatsiya qilish hamda o'sib kelayotgan yosh avlodni harakatlarini tekshirish ularni deviantlikdan qutqarish haqida bayon qilindi

Kalit so'zlar: Xulq -atvor,jinoyat, reabilitatsiya ,mijoz,monitoring,mikroijtimoiy munosabatlar, qo'llab-quvvatlash, oilaviy terapiya,induvidual yondashuv,profilaktika,psixologik yordam.


Yurtimiz kundan kunga rivojlanyotgan davrda nafaqat yosh avlod balki katta yoshli insonlarda ham deviant xulq atvorning rivojlanishi jamiyatda jinoyatchilik ,foxishabozlik, ichkilikbozlik hamda ichki urushlar bilan bog'liq bo'lgan ko'plab hodisalarini keltirib chiqarmoqda. Jamiyatda bunday shaxslarning rivojlanishi ko'plab qonunbuzarliklarga ,inqirozlarga olib kelmoqda.Iqtisodiy tengsizlik ommaviy glaballashuv,axborotdan erkin foydalanish ,ijtimoiy hodisalar ko'pincha ayrim shaxslarning yashash muhitida salbiy reaksiyalarning paydo bolishi bilan izohlanadi.

Deviant xulqli shaxs, jamiyat yoki guruh tomonidan qabul qilingan norma va qoidalarni buzgan holda harakat qiladigan, qabul qilinmagan xatti-harakatlar qiladigan shaxsdir. Deviant xulq jamiyatda ma'lum bir qoidalarga zid bo'lgani uchun ko'pincha salbiy baholanadi. Ushbu xulq turlari ijtimoiy normalar va madaniyatga qarab farq qiladi.

Deviant xulqli shaxs, jamiyat yoki guruh tomonidan qabul qilingan norma va qoidalarni buzgan holda harakat qiladigan, qabul qilinmagan xatti-harakatlar qiladigan shaxsdir. Deviant xulq jamiyatda ma'lum bir qoidalarga zid bo'lgani uchun ko'pincha salbiy baholanadi. Ushbu xulq turlari ijtimoiy normalar va madaniyatga qarab farq qiladi.

Deviant xulq-atvor mikroijtimoiy munosabatlar (oilalar, maktabdag'i munosabatlar) va kichik ijtimoiy guruhlarga xos bo'lgan ijtimoiy me'yorlar va xulqatvor turlaridan biridir. Bu xulq-atvorni "g'ayriintizomiy" deb atasak ham bo'ladi.Deviant xulq-atvorning yorqin namoyon bo'lishiga ,agressiya, o'qishdan qochish va daydilik, bolalar va o'smirlar orasidagi aroqxo'rlik, giyohvandlik va u bilan bog'liq g'ayriijtimoiy harakatlar yuza keladi. Ularning shakllanishi keng tarqalmoqda. Bunda o'smirda ichki-shaxsiy xulq-atvorda nafaqat biologik, balki psixologik o'zgarishlar ham namoyon bo'ladi.

Jamiyatda umume'tirof etilgan me'yorlar va odamlarning xulq-atvorini ana shu me'yorlarga muvofiq tartibga solishga mo'ljallangan ijtimoiy nazorat tizimi mavjud.Odamlarning xulq-atvori normalarga mos kelmaydigan holatlar kam uchraydi.Bunday xatti-harakatlar deviant deb ataladi.



MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Deviant xulq-atvor shakllarining xilma-xilligidan sotsiologlar alohida guruhlarni

ajratadilar. Birinchidan, bunday xatti-harakatni shaxs darajasida, kichik ijtimoiy guruhlardagi shaxslararo munosabatlar doirasida ko'rib chiqish mumkin. Misol uchun ,qishloq uyida yolg'iz yashovchi er-xotin barcha bo'sh vaqtlarini turli mamlakatlarda olib kelgingan yavvoysi hayvonlarni parvarish qilish bilan o'tkaziladi.

Ammo deviant xulq-atvorning shakllari va namoyon bo'lishini farqlash uchun eng ko'p ishlatiladigan asosiy narsa bu olib keladigan oqibatlardir.Unga olib keluvchi yo'llarni aniqlash zarur hisoblanadi.

Deviant xulq turlariga quyidagilar kiradi:

1. Yengil deviant xulq - Bu o'zini nomaqbul ko'rsatish yoki kichik qonunbuzarliklarni o'z ichiga oladi. Masalan, kechasi soat belgilangan vaqtdan keyin ko'chada yurish, odatdagidan o'zgacha kiyinib yurish kabi.

2. Og'ir deviant xulq - Bu og'irroq qonunbuzarliklar yoki jinoiy harakatlarni o'z ichiga oladi. Masalan, o'g'irlilik, tajovuzkorlik, narkotik moddalardan foydalanish, hokimiyatni tan olmaslik va boshqalar.

3. Insoniy deviant xulq - Jamiyat uchun zarar keltiradigan, boshqalarga salbiy ta'sir qiladigan xatti-harakatlar, masalan, jinoyatchilik va zo'ravonlik.

Deviant xulqning sabablari turli xil bo'lishi mumkin. Bu psixologik omillar, ijtimoiy bosim, oila tarbiyasi, iqtisodiy ahvol yoki jamiyatdagi norma va qoidalar bilan kelishmovchilik tufayli bo'lishi mumkin. Jamiyat deviant xulqqa turlicha munosabatda bo'ladi va ko'pincha bunday shaxslarni to'g'rinish yoki jamiyatga qayta moslash uchun chora-tadbirlar qo'llaydi.

Deviant xulqli mijozlar bilan ishlashda ijtimoiy ish metodlari asosiy maqsadi mijozlarga yordam berish, ularning ijtimoiy integratsiyasini qo'llab-quvvatlash va ularga sog'lom va konstruktiv xulq-atvorni rivojlantirishda ko'maklashishdir. Quyidagi asosiy metodlar deviant xulqli mijozlar bilan ishlashda qo'llaniladi

Individiyal yondashuv

- Mijozning shaxsiy ehtiyojlarini aniqlash va unga individual yondashish. - Mijoz bilan aloqani o'rnatish, uning ishonchini qozonish va u bilan ochiq muloqot qilish. - Mijozning deviant xulq-atvor sabablarini aniqlash va shaxsiy reabilitatsiya rejalarini ishlab chiqish.

- Guruh terapiyasi orqali mijozni ijtimoiy muhitga jalb qilish.

- Boshqa mijozlar bilan birgalikda tajribalar almashish, qo'llab-quvvatlash vabirididan o'rganishga imkon yaratish.

- Deviyant xulqli mijozlar uchun mo'ljallangan maxsus guruh dasturlarida ishtirok etish.

Oilaviy terapiya

- Mijozning oilaviy munosabatlarini o'rganish va ularni yaxshilashga ko'maklashish.
- Oilaviy muammolarni hal qilish uchun barcha oilaviy a'zolarni jarayonga jalb qilish. -



MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Oilaga mijoz bilan qanday munosabatda bo‘lish va qanday yordam berish kerakligini tushuntirish.

Davolash va reabilitatsiya

- Mijozni kerak bo‘lganda tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish va zarur davolanishga yo‘llash. - Reabilitatsiya dasturlarida qatnashish, jumladan, narkologiya yoki psixiatrik yordam olish imkoniyatini ta’minlash. - Mijozga o‘zini tiklash va jamiyatga qayta qo‘shilishiga yordam berish- Mijozni zarur xizmatlar va yordam tarmoqlari bilan ta’minlash.

Deviant xulqli mijozlar bilan ishlashda ijtimoiy ishchi kasbiy etika va maxfiylikni saqlashi, shuningdek, mijozlarni hurmat qilish va ularga teng munosabatda bo‘lishi muhimdir. Shu bilan birga, har bir mijoz uchun individual yondashuv tanlash va ularni ijtimoiy hayotga moslashtirish uchun doimiy ravishda qo‘llab-quvvatlash zarur.

Xulqoqonli mijozlar bilan ishlashda ijtimoiy ishchi kasbiy etika va maxfiylikni saqlashi, shuningdek, mijozlarni hurmat qilish va ularga teng munosabatda bo‘lishi muhimdir. Shu bilan birga, har bir mijoz uchun individual yondashuv tanlash va ularni ijtimoiy hayotga moslashtirish uchun doimiy ravishda qo‘llab-quvvatlash zarur.

Jamiyatda deviant xulq-atvorni kamaytirish yoki yo‘qotish uchun quyidagi usullardanham foydalamishimiz kerak deb hisoblayman.Bularga:Ta’lim va tarbiya tizimini mustahkamlash, ota-onalar farzandlariga to‘g’ri qadriyatlarni singdirishlari va yaxshi xulq-atvorni o’rnak qilishlari kerak.Bundan tashqari ularga yaqinlari tomonidan mehr-e’tibor yetishmasligi tufayli ham ularning xulq atvori yomonlashishi mumkin shuning uchun bu jihatlariniham inobatga olgan holda ularni oilaviy muhitini yaxshilash eng muhim bosqichlardan biri deb o‘ylayman.

Maktab va ta’lim muassasalarida ya’ni ta’lim tizimida xulq-atvori og’ir bolgan bolalar tarbiyasini mustahkamlash va ijtimoiy qoidalar haqida keng qamrovli ma’lumot berishi juda muhim.Ommaviy axborot vositalarini tartibga solish hamda ijobiy xulq-atvorni targ’ib qiluvchi kontent ishlab chiqarish va tarqatish,ijtimoiy nazoratni kuchaytirish ya’ni deviant xatti-harakatlar uchun jazoni kuchaytirish va tartibga solish. Xulq-atvor muammolari bo‘lgan shaxslarga psixologik yordam va maslahatlar ko’rsatish orqali jamiyatda farovot hayotni yo‘naltira olamiz.

FOYDLANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Олимов Л.Я., Махмудова З.М. Психологические механизмы девиантного поведения. Психология XXI века. Ярославль., 2020.
2. Sadriddinov S.R. Deviant xulq-atvorli bolalar psixologiyasi bilan ishslash metodikasi. Toshkent 2022
3. L.M.Xakimova “Deviant xulq atvor psihologiyasi” Toshkent 2014.
4. Jizpe.uz
5. Goaravetisyany.ru

